

## O‘ZBEK XALQIGA QO‘YILGAN ”HAYKAL”

Xoshimova Shoira Akrom qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya  
fakulteti filologiya va tillarni o‘qitish:  
o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Guliston davlat universiteti o‘zbek Adabiyotshunoslik kafedrasи  
filologiya f.b.f doktori, dotsent Gulchehra Qo‘yliyeva

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek xalqi tarixida yaratilgan eng qadrli va  
tarixni to‘laqonli yorita olgan asar hisoblanmish “ Otamdan qolgan dalalar “ romani  
haqida va uning poetikasi,nazariy tahlili yuzasidan fikrlarga ega bo‘lamiz.

**Kalit so‘zlar :** Tog‘ay Murod, bosh obraz ,o‘zbek ishi , paxta monokulturasi  
,Adabiyotda “ ayol “ obrazi , roman tili ,

O‘zbek xalqining boy tarixi haqida , uning boshidan o‘tgan ba’zan baxtiyor,  
ba’zan og‘ir kunlar haqida , umuman olganda, o‘zbeklar haqida adabiyotimizda qator  
qissa va romanlar mavjud. Ular orasida Tog‘ay Murod qalamiga mansub asarlarning  
o‘rni beqiyosdir. Adibning barcha asarlari milliy xalqona ruhda yozilgan.

Tog‘ay Murod (Mengnorov) 1948-yil 3-fevralda Surxondaryo viloyati Denov  
tumanidagi Xo‘jasoat qishlog‘ida tavallud topgan. 1966-1972-yillar davomida  
Toshkent davlat dorilfununing jurnalistika fakultetida tahsil olgan. O‘qishni  
tamomlagach ” Vatanparvar ” tahririyatida va respublika radiosida faoliyat olib  
borgan. Faoliyati davomida ”Fan va turmush” ro‘znomasida (1982-1984),  
”O‘zbekiston fizkulturachisi” oynomasida ishladilar. 1985-1987-yillarda ko‘plab  
shoir va yozuvchilar uchun sharaflı bo‘lgan Moskvadagi Jahon adabiyoti oliygohida  
tahsil olib qaytdi . Tog‘ay Murodning badiiy ijodi haqida gapiradigan bo‘lsak, adib bir  
qator qissa va romanlar muallifidir. Adibning birinchi asari “Yulduzlar mangу  
yonadi” qissasi 1976-yilda chop etilgan. Shundan keyin adibning “Ot kishnagan  
oqshomda” (1979), ” Oydinda yurgan odamlar” (1980), “Momo Yer qo’shig‘i”

(1985) kabi qissalari , “Otamdan qolgan dalalar” (1993) va “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” (2003) romanlari kitobxonlarga taqdim etildi. Tog‘ay Murod 1994-yil “Otamdan qolgan dalalar” romani uchun Abdulla Qodiriy nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

“Otamdan qolgan dalalar” romanini chin ma’noda saviyali roman deya olamiz. Roman Tog‘ay Murod asarlarining o‘ziga xos ”tili” da yozilgan. Asar bosh qahramon Dehqonqul tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi asarni Dehqonqulning hayoti bilan emas, balki uning bobosi Jamoliddin Ketmon, otasi surxoni Aqrabning hayoti bilan boshlaydi, chunki ota- bobosining kimligi haqida aytmasdan Dehqonqul obrazini yoritib bolmasdi. Bu obraz orqali o‘zbeklarning qariyb yuz yillik tarixi ochib berilgan. Unda uch avlodning hayoti va boshidan o‘tkazganlari tasvirlangan bo‘lsada, uning ortida esa o‘zbek atalmish butun bir mushtipar va mehnatkash xalqning taqdiri yotadi.

Asarda aytiganidek, birinchi avlod vakili bo‘lgan Jamoliddin Ketmon – o‘ta mehnatkash, oriyatli inson oqposhsho istilosidagi shafqatsizlik va zulmga qarshi xalq orasida bo‘ladi. Lekin shafqatsizlik va xo‘rlikka chidayolmay Farg’onadan qochib ketadi va Surxondaryoga borib yashaydi.

Ikkinci avlod Aqrab qo‘rboshi u Qizil imperiyaning o‘rgimchak to‘ridek to‘qilayotgan yangicha tuzumi tuzilishi davridagi “yangicha tuzum”ga qarshi millatpqrvar, yurtiga bostirib kelayotgan tashqi kuch bilan murosa qilolmaydigan imonli xalq vakili edi. “... Otamiz qadamish cho‘p nihol bo‘ladi. Otamiz qadamish daraxt shig‘il – shig‘il bo‘ladi. Otamiz kesmish tok shokila-shokila bo‘ladi. Otamiz qirqmish gul shoda-shoda bo‘ladi” , deb ta’riflaydi romanda surxoni Aqrabni. [15-bet] Bundan ko‘rinadiki, Aqrab qo‘rboshi qo‘li gul bog‘bon edi, u juda ham vatanparvar, mard inson bo‘lib yurt ozodligi uchun kurashadi va shu yurt uchun qurbon bo‘ladi. Aqrab orqali bosmachilik harakati ochib berilgan . -

Asarning markazidagi obraz – **Dehqonqul** . U o‘z ismi bilan ” dehon, qul”. Dehqonqulni sho‘ro tuzumi yetishtirgan, tarbiyalagan sovet davri odami . Unga faqat bobolaridan mehnatkashlik hislati o‘tgan . Otalaridagi erksevarlik ,vatanparvarlik tuyg‘ulari Dehqonqul uchun mutlaqo notanish. U faqat daladagi ishini, mehnatini, dalasini, paxtasini o‘ylaydigan, bor-budini dalasiga, mo‘l hosil olish ilinjida ishlaydigan paxtakor. U dalasiga shunchalar mehr qo‘ygamki, dalani o‘ylaganchalik oilasini, yaqinlarini o‘ylamaydi. Paxta monopoliyasi degan baloi azim uni oilasining ahvoldidan xavotir olmaydigan, ularni his qilmaydigan manqurtga aylantirib bo‘lgan. Asarda sho‘ro tuzumi tarbiyalagan birgina inson prototipida xalqimizning ayanchli taqdiri ochib berilganiga guvoh bo‘linadi. U va shular misolida barcha mehnatkashlarning hayoti faqat mehnat qilish kerag-u, lekin shunga yarasha yaxshi hayot kechirmaslikka o‘rganib, shunday o‘tib ketish odat tusiga aylanganlar edi. Asardagi ayanchli haqiqatlardan biri paxta terimining inson hayotidan ustun bo‘lganini Ziyod ismli bolakayning paxtaga sepilgan dori tufayli zaharlanib vafot

etishida ko'rishimiz mumkin. Kolxoz beradigan maosh juda kamligi uchun Dehqonqul mototsikl ololmaydi, lekin rais unga mototsikl sovg'a qiladi, ammo u mototsikl ham ozining maoshidan ushlab qolish evaziga bo'ladi.

Asarda tasvirlangan ayollar obrazi ham mahorat bilan tasvirlangan. Birgina Bolxin momo obrazini oladigan bo'lsak, ayollarning metindek sabrini aynan shu obrazda ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, romandagi Dehqonqulning xotini obrazi zahmatkash, eng sabrli va matonatli o'zbek ayollarining timsoli sifatida mahorat bilan yoritilgan. U rozg'ordagi yetishmovchiliklarga va hayot qiyinchiliklariga chidolmasdan, o'zini yoqib yuboradi. Paxta monokulturasi sabab. arning daladan beri kelmasdan ishlasa ham uy-ro'zg'orning nochorligi, har qadamda yetishmovlik, ayolni jonidan to'ydiradi. Xotinining vafotidan keyin Dehqonqul uydagi beshikning qoshiga yozilgan ayolining dardlari va armonlarini o'qib qoladi. "Dunyoga kelib nima ko'rdim?" "Beshik ko'rdim." "Dunyo ko'rib neni ko'rdim?". "G'o'za ko'rdim, paxta ko'rdim.". "Kun ko'rdim -g'o'za ko'rdim.", "Tun ko'rdim -beshik ko'rdim." "Beshik mozorim bo'ldi-dala mozoristonim bo'ldi" (118-sahifa). Asarning eng kulminatsion nuqtasi ham shunda. Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani chin ma'noda o'zbek xalqining 100 yillik tarixini o'zida namoyon qildi.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldashev Tog'ay Murod haqida shunday deydi: "Tog'ay Murodning asarlari urbanizatsiya va globallashuv bois o'q tomiridan tobora uzoqlashib borayotgan bugungi o'zbek asl milliy tuyg'u, sezim va kechinmalar bilan oshno qiladi. Yozuvchi chin milliy tuyg'ularni bilish hamda go'zal tasvirlay olishi bilan qadrlidir."

Yaqingina tariximizda bo'lib o'tgan real voqealar asosida yaratilgan "Otamdan qolgan dalalar" asarini o'qib chiqqach, chindan ham o'zbek xalqiga qo'yilgan haykaldir degan xulosaga kelishingiz aniq.

### Foydalanimizda adabiyotlar:

1. Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar". – T. 1996
2. Q.Yo'ldoshev ."So'z yolqini". – T.2018
3. Pardayeva Manzura . " Til va adabiyot " jurnali 2004 -yil .4 - son
4. Pardayeva Zulfiya. " Til va adabiyot " jurnali . 1- son.

**СОСТАВ И СВОЙСТВА ПОЛИСАХАРИДНОГО КОМПЛЕКСА SYRINGA VULGARIS,  
ПРОИЗРАСТАЮЩЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ**  
**Ибрагимова Д.М., Нурмаматова М.О., Ибрагимова С.Б**